

## O‘SMIR YOSHIDAGI BOLALAR SHAXSINING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING TA’SIRI.

*Psixologiya va xorijiy tillar instituti.*

*Psixologiya(faoliyat turlari)yo‘nalishi magistranti.*

*Babayeva Gulchehra Rustamovna.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, o‘smir yoshdagi bolalar shaxsining etnopsixologik xususiyatlarini shakllantirishda oilaning ta’siri mavzusida metodik tushunchalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** bola psixologiyasi, tarbiya, metodika, longityud, xissiy jarayon, ma’rifiy jarayonlar, pedagogika.

**Annotation:** In this article, methodical concepts are discussed on the topic of the influence of the family on the formation of ethnopsychological characteristics of the personality of adolescent children.

**Keywords:** child psychology, education, methodology, length, emotional process, educational processes, pedagogy.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются методические положения на тему влияния семьи на формирование этнопсихологических особенностей личности детей подросткового возраста.

**Ключевые слова:** детская психология, воспитание, методика, продолжительность, эмоциональный процесс, воспитательные процессы, педагогика.

Avvalo bola psixologiyasi haqida so‘z yurutamiz. Bola psixologiyasi onaning qornidayoq boshlanadi. Asosan bizning millatimizda bola tarbiyasiga juda katta ahamiyat beradilar. Psixologiya tarbiyada yaqqol namoyon etuvchi ruhiy hodisa hisoblanadi. Mana shuning uchun bizning elat va millat shaxslari bolalar va yoshlarning psixologiyasiga yomon ta’sir etuvchi omillardan uzoqroq yurishga harakat qiladilar. Bolalar psixologiyasi — psixologiya sohasi, bolalar psixologik rivojlanishining umumiy va aloxida xususiyatlarini, turli yosh bosqichlarida bu jarayon qanday kechishi, uni harakatlantiruvchi kuchlar va qonuniyatlarni tadqiq qiladi. Shu sababli bolalar psixologiyasini ko‘pincha yosh psixologiyasi deb ataydilar. Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar (ma’rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va h. k.) paydo bo‘lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilmaxil faoliyatning (o‘yinlar, o‘qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o‘rganadi. Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan tadqiqot usullaridan foydalanadi, biroq uni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Bola shaxsi yosh xususiyatlarini o‘rganishda ko‘ndalang kesma va longityud deb nomlangan tadqiqotlar o‘tkaziladi. Birinchi holatda birgina psixik jarayonning o‘zi bir

vaqtda turli yosh guruhlariga taalluqli bo'lgan bolalarda tadqiq qilinadi. Ikkinchi holat (longityud) da esa ma'lum bir (alohida tanlab olingan) bolalarning psixik xususiyatlari ko'p yillar davomida tadqiq qilinadi. Bu esa o'z navbatida ular psixikasi rivojlanishining umumiy kechishini kuzatish imkoniyatini beradi. Bolalar psixologiyasida asosan ota-onalarga bolaga unga bo'lgan ishonch, hurmat, qo'llab-quvvatlash, unga bo'lgan e'tiborlarini his qildirish, Mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan holatlar o'rgatiladi. Bola dunyoni, atrofni ota-ona ko'zlari bilan anglaydi. Ota-onaga nima yomon bo'lsa, bola shuni yomon deb hisoblaydi. Ota-ona kimni xush ko'rsa, bola uchun u inson yaxshi bo'ladi. Bu holat bolani 10-12 yoshiga qadar davom etadi. Undan keyin bola o'zi xulosa qilishga o'rganishni boshlaydi. Shunday ekan, bolaning har bir harakati - bu ko'zgidagi sizning aksingiz. Bolalar psixologiyasi 19-asr o'rtalarida mustaqil fan sifatida ajralib chiqa boshladi. U pedagogika psixologiyasi, ped., oliy asab faoliyati fiziologiyasi bilan chambarchas bog'langandir. Uning ma'lumot va xulosalari yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti uchun, umumiy psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda Bolalar psixologiyasi masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Farzand-inson hayotining mazmuni, nasl nasabinining davomchisi, oilaning mustahkam zanjiri hamdir. Aqlli, bilimdon, mehnatsevar iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning balki butun jamiyatning eng katta boyligi hisoblanadi. Odatda, farzand oilada ham jismonan, ham ma'nau ulg'ayib shakllanadi. Ularning voyaga yetishi davomida oiladagi ahillik muhim ro'l o'ynaydi. Ayniqsa, ularning ma'naviy tarbiyasi bilan jamiyatga xizmatini ifodalaydi. Farzandlarimiz sog'lom, e'tiqodli jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ham ota-ona zimmasizga yuklangan. Rasululloh Sallallohu alayhi vasallam "Farzandlaringizga suvda suzishni, kamondan otishni, nayza uloqtirishni, otda choptirishni o'rgatinglar!"-deb, Farzandlaringizni chaqqon, sog'lom, baquvvat, ziyarak qilib tarbiyalashga ummatlarini targ'ib qildilar (Termiziy va Abu Dovid rivoyatlari). Zeroki, sog'lom psixologik tarafdin ham yetuk farzand hamma joyda ham o'z yurtiga naf keltiradi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqqan holda, barcha narsa bola psixologiyasiga bog'liq ekanligini anglab yetsak bo'ladi. Bola psixologiyasi, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bola psixologiyasi juda murakkabdir. Shuning uchun, men o'z bilim va ko'nikmalarimdan kelib chiqqan holda, ko'proq maktabgacha yoshdagi bolalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq ish deb o'ylayman. Chunki, bu yoshda ya'ni, maktabgacha yosh 3-4, 5-6-7 shu yoshlarda bola juda tez fikrlaydi va psixologiyasi juda murakkab va qiziqishlari turli xil bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, rivojlanayotgan bola psixologiyasi yana oilaga borib taqaladi, chunki bola asosan 2 xil muhitni farqlaydi ya'ni, oila va o'zi borayotgan maskan ya'ni, bog'cha albatta bog'chada boshqa muhit oilada esa o'z gacha muhit shuning uchun ham bolaga oiladagi muhit bog'chaga ya'ni, ta'lim tarbiya olayotgan maskaniga, u yerdagi bolalarni psixologiyasiga ham katta ta'sir qilishi

mumkin. Shu ta'lim maskani ya'ni, bog'cha ham oilaga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun, maktabgacha tarbiya yoshida e'tiborimizni farzandimizga qaratishimiz kerak. Bildirilgan barcha ma'lumot va fikrlarimizdan xulosa qilib aytganda, bolada 2 xil fikr va qarashlar hosil qilib qoyishimiz kerak emas ya'ni, oila ijobiy bog'cha salbiy degan yoki shuning aksi bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun ota-onalarimiz va biz malakali pedagoglar bilan doimiy ravishda hamkorlikda ishlashimiz zarur va shartdir. Shundagina, biz o'zimiz o'ylagan ulkan natijalarga erishamiz. Va yurtimiz uchun ravnaqi uchun yetuk va barkamol farzand bo'lib yetishib chiqamiz.

### **Xulosa.**

Islom tarbiyasida ota-onaning o'rni haqida ko'p gapirilgan. Ayniqsa, ota fe'li atvorining bola tarbiyasiga ta'siri haqida alohida uqtiriladi. Xususan, nafaqat o'zbek, balki butun islom mamlakatlariga mashhur bo'lgan din peshvosi Shayx Muhammadsodiq Muhammad Yusuf janoblari o'zining bola tarbiyasi haqidagi fikrlarini quyidagicha bayon etgan: —Bizning islomiy 441 kitoblarimizda aytilishicha, bola o'ng qo'li bilan chap qo'lini ajratadigan bo'lganda, uni jiddiy tarbiyalash boshlanadi. Uning ko'nglini qoldirmasdan, qo'pollik qilmasdan, bolaligini e'tiborga olib, ruhlantirib tarbiyalanaveradi. Abu Rayhon Beruniy insoniyat tarixida birinchilardan bo'lib bolalarni kichik yoshidan mehnat qilishga o'rgata borish, kattalar mehnatini e'zozlaydigan qilib tarbiyalash, bolani ilm va kasbga o'rgatish oilaning diqqat markazida bo'lishi kerakligi haqida fikr bildirgan. Alloma oilada boshlangan mehnat tarbiyasini maktabda ta'lim bilan birga hunar o'rgatishga bog'lab davom ettirish lozimligi haqida alohida ta'kidlagan. Ulug' mutafakkir mehnat va kasb-hunar vorislik asosida avloddan-avlodga meros bo'lib o'tishini sinchkovlik bilan o'rgangan va insonlarning hunarmandchilik faoliyatini yuqori baholagan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shayx Muhammadsodiq Muhammad Yusuf —Shoyadki taqvodor bo'lsakl ma'ruzalar, maqolalar va suhbatlar to'plami, TOSHKENT, Cho'lpon.
2. [https://play.google.com/store/apps/details?id=com.iqtiboslar\\_olami.aforizmlar](https://play.google.com/store/apps/details?id=com.iqtiboslar_olami.aforizmlar).
3. Z.T.Nishonova —Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya|| TOSHKENT-2018.
4. Abdulla Avloniy —Turkiy guliston yoxud axloq.